

YOSHLAR OVOZI

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!



#45 (16699)
2025-yil 12-noyabr,
chorshanba

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqq boshlagan



YASHIL TAFAKKUR

O'ZBEKISTON YOSHLARIDA YANGI QADRIYAT SHAKILLANMOQDA

Bugun yoshlar atrof-muhit muammolarini faqat siyosiy va ilmiy kontekstda emas, shaxsiy hamda axloqiy masala sifatida ham qabul qilmoqda. O'zbekiston yoshlari orasida "yashil tafakkur": tabiat bilan uyg'unlik, resurslarni tejash, yashil innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash singari qadriyatlar shakllanmoqda.

BMT Taraqqiyot dasturi hisobotida qayd etilishicha, O'zbekistonda 15-25 yoshdagi yoshlar iqlim o'zgarishiga va atrof-muhitga munosabatini o'rganish natijasida ko'plab yoshlar seminar, trening va amaliy loyihalarda qatnashgani aniqlangan.

Bu bir trend: yoshlar endi "kelajakni kutish" emas, "kelajakni qurish" harakatida.

AMALIY ODATLAR TO'LIQ SHAKLLANMAGAN

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, O'zbekistonda yoshlar orasida resurslarga ehtiyotkorlik bilan muomala qilish bo'yicha salohiyat bor, lekin amaliy odatlar hali to'liq shakllanmagan. Masalan, "What do young people in Uzbekistan know about water scarcity?" maqolasida keltirilgan so'rovga ko'ra, 15-25 yoshdagi respondentlarning 74,1 foizi suv resurslari bilan ehtiyotkorona muomalaga tayyor ekanini bildirgan.

Shu bilan birga, o'quvchilarda ekologik madaniyat va ongni shakllantirishda ta'lim tizimining hisssasi katta. "Yangi O'zbekiston sharoitida o'quvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish zaruriyati" maqolasida ta'kidlanishicha, maktabdan boshlab ta'lim tarmoqlari tabiat bilan uyg'unlikda yashashni o'rgatishi muhim. Shu bois O'zbekiston Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlagan.

YER AJRATISH DASTURI NATIJALARI

Yurtimizda "Yoshlar uchun yer ajratish" tashabbusi doirasida sezilarli natijalarga erishildi.

Bugungi kunga qadar 155,2 ming nafar yoshga jami 57,1 ming gektar yer maydoni ajratilgan. Ajratilgan yerlarda 522 ming tonnadan ortiq mahsulot yetishtirilib, jami 1,9 trillion so'mlik daromad olindi. Jumladan:

- **Don va dukkakli ekinlar – 236,6 ming tonna;**
- **Poliz ekinlari – 178,4 ming tonna;**
- **Bog'dorchilik mahsulotlari – 107,5 ming tonna.**
- **Mos ravishda, 529 mlrd, 395 mlrd va 171 mlrd so'mlik iqtisodiy qiymat yaratilgan.**

"Yosh fermerlar" platformasi orqali yoshlarning faoliyati muvofiqlashtirilib, ularga agrotexnik maslahatlar, kredit va marketing bo'yicha amaliy ko'mak ko'rsatilmoqda. PQ-153-son qarorga asosan 33 ta yoshlar kooperatsiyasi faoliyat yuritmoqda, yana 26 tasi tashkil etilish jarayonida.

Sharqda quyosh porlamoqda



Chilonzor tumanidagi Sharq mahallasi yoshlar yetakchisi Ulug'bek Nurmurodov 2025-yilning uchinchi choragida Yoshlar ishlari agentligining "TOP-100" yoshlar yetakchilar ro'yxatidan o'rin egalladi.

– Bu mening emas, mahallamiz yoshlarining mehnatlari e'tirofidir, – deydi yoshlar yetakchisi Ulug'bek Nurmurodov. – Men har bir yigit-qizning qalbidagi quyoshni porlatishga harakat qilaman.



O'ZBEKISTON – QOZOG'ISTON YOSHLARI KONGRESSI

2025-yil 9–11-noyabr kunlari Toshkentda O'zbekiston va Qozog'iston yoshlari kongressi bo'lib o'tdi. Har yili o'tkaziladigan bu anjuman ikki qo'shni xalq yoshlari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash, yangi g'oya va imkoniyatlar almashish uchun xizmat qiladi. Tadbir davomida iqtisodiyotdan tortib, yoshlar siyosati, ekologiya va ixtirochilikka qadar turli mavzular muhokama qilindi.

Kongressda yoshlar bilan ishlash, kreativ iqtisodiyot, volontyorlik va ekologiya kabi yo'nalishlarda mutaxassislar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdi. Maqsad ikki mamlakat yoshlari o'rtasida do'stona muloqotni kuchaytirish va birgalikda foydali loyihalar boshlash edi.

Mehmonlar Toshkentdagi yoshlar markazlari, yaratilgan sharoitlar va tarixiy joylar bilan tanishdi. Ochilish marosimida O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi rahbariyati hamda Qozog'iston Madaniyat va axborot vazirligi va

killari so'zga chiqib, yoshlarni kreativ sohalar, AT va iqlim muammolari bo'yicha faol bo'lishga undadi.

Kongressda ekologiya masalalari alohida e'tibor qozondi. "Taza Kazakhstan", Orol dengizi bo'yicha qo'shma tashabbuslar va Green University loyihalari haqida fikr almashildi. Bular ikki xalq yoshlari uchun atrof-muhitni asrashda birgalikda ishlash imkonini beradi.

Shuningdek, kreativ iqtisodiyot, raqamlashtirish va sanoatda yangi yo'nalishlar haqida ham so'z bordi. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev hamkorlikni yanada kuchaytirish, qo'shma loyihalarini ko'paytirish va yoshlarning salohiyatini ochildishga chaqirdi.

Kongress yakunida ikki mamlakat yoshlarini yaqinlashtiradigan yangi rejalar belgilandi. Endi bu hamkorlik yoshlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar ochishi kutilmoqda.



MARKAZIY OSIYO BIRDAMLIGI – MINTAQA TARAQQIYOTI KAFOLATI

➔ 2-bet

Samarqandda davom etayotgan UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasida Markaziy Osiyo xalqaro instituti "Yangi Markaziy Osiyo: madaniyat, ta'lim va ilm-fan orqali birgalikda rivojlanish va farovonlikka erishish yo'li" mavzusida maxsus tadbir o'tkazdi.

Unda Markaziy Osiyo xalqaro instituti mas'ullari, xorijiy mamlakatlarining tegishli idoralari va tashqi siyosat muassasalari, diplomatik vakolatxonalar, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarining tahliliy tuzilmalari vakillari qatnashdi.

YOSHLAR BILAN ISHLASH

NATIJALAR AMALDA
BO'Y KO'RSATMOQDA



➔ 2-bet

Viloyatda yoshlar bilan ishlash tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, samaradorlikni oshirish bosh maqsad sifatida belgilab olingan. Yil boshidagi xatlovda Qashqadaryoda 14-30 yosh oraliqidagi 951 ming 301 nafar yosh aniqlanib, ijtimoiy holatiga ko'ra ular uch toifaga ajratildi. Shundan 638 ming 744 nafari "yashil", 300 ming 181 nafari "sariq", 12 ming 376 nafari "qizil" toifaga kiritildi.

Birinchi navbatda, "Og'ir" toifadagi yoshlar bilan manzilli ishlash yo'lga qo'yildi. Jumladan, ularga 463 nafar mas'ul birlashtirildi. Tizimli hamkorlik natijasida 12 ming 339 nafar, ya'ni 99,7 foiz yoshning birlashtirish ta'minlandi. 2 120 nafari doimiy ish o'rniga ega bo'ldi, 950 nafari kredit asosida tadbirkorlikni yo'lga qo'ydi, 1 125 nafari yer maydoni, 189 nafari esa asbob-uskunalar bilan ta'minlandi.

TO'YDAN SO'NG...

BAXTLI HAYOT BOSHLANADI

➔ 4-bet

To'ylarni tartibga solish uchun qator qonun hujjatlari qabul qilinyapti. Biror sohada me'yoriy hujjat chiqarishga qachon ehtiyoj tug'iladi o'zi? Qachonki noqonuniy yoki jamiyatdagi xulq-atvor qoidalariga nomuvofiq munosabatlar, harakatlarni ommalashib, qonun doirasida tartibga solish zarurati tug'lsa.

Jamiyatimizda to'y qilish insonlar hayotidagi yagona maqsad kabi ko'rinedi. Marosimlar, sep, to'ydan oldingi va keyingi ko'plab ortiqcha, anchagina xarajat talab qiladigan "an'analar" uchun pul to'planadi. Lekin shularni kim o'ylab topayapti? O'zimiz. To'ylarni bir kun emas, bir necha kun qiladigan bo'ldik, kelin olib keladigan buyumlar ro'yxatini uzaytirib boryapmiz va hokazo.



MARKAZIY OSIYO BIRDAMLIGI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



– Markaziy Osiyo mam-lakatlari madaniy merosi ta-rixi, arxeologiyasi bo'yicha Yevropa, AQSh va Osiyo min-taqalaridan kelgan muta-xassislar bilan birgalikda qa-tor xalqaro loyihalar bo'yi-cha tadqiqotlar olib bormoq-damiz, – deydi Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti direktori Evren Rut-bil. – Bugungi tadbir mintaq-a taraqqiyotida o'ta muhim deb o'ylayman. Madaniyat, ta'lim va ilm-fan rivoji har qan-day davlatning taraqqiyoti-da muhim o'rin tutadi. Ushbu sohalaridagi mintaqaviy ham-korlik hududning xalqaro maydondagi o'rnini mustah-kamlashga xizmat qiladi.

– MINTAQA TARAQQIYOTI KAFOLATI



Anjumanda O'zbekiston Prezidenti maslahatchisi o'rin-bosari, Markaziy Osiyo xalqaro instituti boshqaruvchi direk-tori Javlon Vahobov, BMT Bosh kotibining Markaziy Osi-yo bo'yicha maxsus vakili Kaha Imnadze, O'zbekiston Res-publikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rivojlanish va is-lohotlar agentligi bo'lim boshlig'i Aziza Umarova bugungi kunda mintaq-a davlatlari o'rtasida qaror topgan yaqin qo'shnichilik va strategik sherik-lik munosabatlari keyingi yillarda yanada mustahkamlanib borayotganini ta'kid-ladi. Bu aloqalar madaniy-gumanitar sohalarida ham ancha rivojlandi.

– O'zbekiston o'zining amaliy takliflari bilan doimiy ravishda Marka-ziy Osiyoda alohida o'rin tutadi, – deydi Markaziy Osiyo xalqaro institu-ti bo'lim boshlig'i Aziz Toshev. – Bugungi tadbirimiz ham bir necha yo'na-lishlarni qamrab oladi. Birinchi yo'nalish ta'lim sohasiga qaratiladigan bo'lsa, ikkinchi yo'nalish UNESCO bilan bog'liq. Bunda Prezidentimiz to-monidan bildirilgan 16 ta tashabbusni qo'llab-quvvatlash, ularning amaliy mexanizmlarini muhokama qilib, birgalikda amalga oshirishga e'tibor qa-ratilgan. Jarayonda kelajakdagi rejalar ham alohida uqitiriladi. Davlatimiz rahbarining tashabbuslariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sun'iy intellekt-dan tortib yoshlar masalalarigacha qamrab olingan. Ayniqsa, ekologiya, fan va ta'lim, gender tenglik masalalari alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston xo-tin-qizlar masalasi doirasida amalga oshirayotgan islohotlari dunyo e'tiro-fi-ga tushgani bejiz emas. Bugungi kunda jamiyatning barcha bo'g'inlarida xotin-qizlar faol ishtirok etmoqda. Bu yerda faqatgina madaniy meros, fan-ta'lim kabilar bilan cheklanib qolmay, UNESCO tomonidan ilgari surilayot-gan barcha yo'nalishlarni qamrab olgan holda Markaziy Osiyo xalqlarining do'stlik siyosatini yanada mustahkamlash borasidagi tashabbuslarni rivoj-lantirish ko'zda tutilgan.

Tadbirda mutaxassislar, xalqaro ekspertlar tomonidan bir qator takliflar, amaliyotda erishilayotgan yutuqlar haqida fikrlar bildirildi.

Tadbir davomida Markaziy Osiyoning taraqqiyotiga muhim hissa qo'shadigan yangi loyihalar, tashabbuslarni aniqlash, ularni amalga oshirish borasidagi takliflar o'rtaga tashlandi.

G'olib HASANOV,
O'ZA muxbiri

“YETAKCHI CAMP”

ilhom va imkoniyat



3 –8-noyabr kunlari Bo'stonliq tumanida Yashlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston yoshlar yetakchilari-ni qo'llab-quvvat-lash markazi hamkorligida mamlaka-timiz bo'ylab mahalla yoshlar yetak-chilari uchun ilk bor “Yetakchi camp” o'quv-seminari tashkil etildi.

O'quv-seminar mahalla yosh-lar yetakchilarini qo'llab-quvvatlash, ularning bilim va salohiyatini oshirish, zamonaviy ko'nikmalarni shakllan-tirish hamda faol fuqarolik pozitsiya-sini mustahkamlash maqsadida o'tka-zildi.

Respublikamizning barcha hu-dudlaridan 4 mingdan ortiq yosh-lar ishtirok etish uchun ariza top-shirib, ular 5 bosqichida sara-lab olindi. Natijada eng faol, ta-shabbuskor va bilimli 100 nafar yosh birinchi mavsumda qat-nashish imkoniyatiga ega bo'ldi.

– Bizni oromgohda karnay-sur-naylar bilan o'zgacha kutib olishdi, – deydi Andijon shahridagi Namu-nali birlik mahallasi yoshlar yetak-chisi Omadbek Orifjonov. – Orom-gohning ikkinchi kunida Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator Alisher Sa'dullayev barcha yetakchi-lar bilan suhbatlashdi. Ular qatorida men ham so'zga chiqib, mahallam-da amalga oshirgan startap loyihala-rim, mega loyihalar targ'iboti hamda shaxsiy rivojlanish yo'lidagi natijala-rim haqida qisqacha ma'lumot ber-dim. Alisher Sa'dullayev esa meni res-publika darajasidagi jamoasida ish-lashga taklif qildi.

“Yetakchi camp” dasturi doirasida ishtirokchilar uchun turli yo'nalishlarda o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. Yosh-lar psixologiyasi, startap loyihalarini ish-lab chiqish va amalga oshirish, me-diasavodxonlik, shaxsiy rivoj-lanish, boshqaruv ko'nikmalari kabi mavzularda tajribali muta-xassislar mahorat darslari o'tkazdi.

Oromgohda ko'ngilochar dastur-lar ham bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar ka-raoke kechalar, sport musobaqalari, kino namoyishlari, “Quiz” intellektual o'yinlari hamda turli interfaol tadbir-larda faol ishtirok etdi.

Oromgohning birinchi mavsumi yuqori saviyada o'tkazilgani hamda ishtirokchilar katta qiziqish bilan qat-nashgani bois “Yetakchi camp”ning ikkinchi mavsumiga ham rasmiy start berildi. Bu esa loyiha-ni kelgusida doimiy an'anaga aylanishi va yana-da ko'plab yoshlar uchun yangi im-koniyatlar eshigini ochishiga ishonch uyg'otadi.

Umuman, “Yetakchi camp” – yosh-lar uchun ilhom va imkoniyat makta-bi. Unda har bir ishtirokchi o'zini qay-ta kashf etdi, salohiyatini namoyon qildi va jamiyatda faol yetakchiga ay-lanish sari muhim qadam tashladi.

Muborak MAMUTOVA,
Yoshlar yetakchilarini qo'llab-quvvatlash markazi loyiha menejeri



Yoshlar bilan ishlash

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Yoshlarning xorijda tartib-li mehnat faoliyatini tash-kil etish – yana bir muhim yo'nalish. 666 nafar yosh chet elda ras-miy tartibda ish boshlagan. 268 na-far yigit muddatli harbiy xizmatga, 659 nafari oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan. Umuman, 6 362 nafar yosh turli yo'nalishlarda bandlikka erishgan.



JINOYATCHILIK 44 FOIZGA QISQARDI

2025-yilda viloyatdagi umumta'lim muassasalarini tamomlagan 73 ming 335 nafar o'quvchidan 39 ming 555 nafari (54 foiz) ta'limning keyingi bos-qichiga yo'naltirilgan, 33 ming 780 na-fari esa mehnat bozoriga kirib keldi. Bu yigit-qizlarning 83,3 foizi (31 ming 772 nafar) ishga joylashgan.

Yoshlar bilan ishlashda otaliqqa olish mexanizmi o'zini oqlamoqda. Viloyatda 3 150 nafar “og'ir” toifada-gi yoshga huquq-tartibot va mudofaa organlarining 257 nafar xodimi birkir-tildi. Natijada 2 328 nafar yoshning ijtimoiy va maishiy muammolari hal etilib, yoshlar jinoyatchiligi keskin ka-maydi. 2024-yilda 654 ta jinoyat qayd etilgan bo'lsa, bu yilning 9 oyi davomida ko'rsatkich 366 taga tushib, 44 foizga qisqargan. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik 16 foizga ka-maygan.



NATIJALAR AMALDA BO'Y KO'RSATMOQDA



“AQLLI MAKTAB”GA 20 MING DOLLAR

Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish yo'nalishida ham yutuqlarga erishil-moqda. “Aloqabank”ning “Yoshlar uchun ish o'rinlari” va “Biznesga bi-rinchi qadam” dasturlari doirasida 720 ta loyiha uchun 88,3 milliard so'm kredit ajratildi. “Milliy bank” esa 243 nafar yosh tadbirkorning 21,4 milliard so'mlik loyihalarini moliyalashtirdi.

Nishon tumanidagi “Aqlli maktab” innovatsion loyihasiga 20 ming AQSh dollari, Qarshi tumanidagi “Yammiy” loyihasiga 10 ming AQSh dollari miq-dorida sarmoya jalb qilingan.

Joriy yil boshidan buyon “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 5 771 nafar yosh-dan 4 607 nafari (72 foiz) 11,7 mil-liard so'mlik moliyaviy yordam bilan qo'llab-quvvatlandi.

Yoshlar orasida dehqonchilikka qi-ziqish katta. Ularning talablari qo'l-lab-quvvatlanib, 5 124 nafar yoshga 3 695 gektar yer ajratilgan. 2 133 gektar-da ozuqabop, 1 019 gektarda dukkakli, 1 127 gektarda sabzavot va 255 gektar-da moyli ekinlar yetishtirilib, yosh dehqonlarimiz mo'l hosil ko'targani butun tizimning ulkan yutug'i deb o'ylayman. “Yosh fermer” elektron platformasi-da har bir yoshning faoliyati raqam-li monitoring qilinib, samaradorlik ba-holab borilayapti.

4 391 NAFAR YOSH VATANGA QAYTDI

Ma'lumotlarga ko'ra, ayni pay-ta viloyatdan 18–30 yosh orali-gidagi 15 841 nafar yosh xorijda mehnat yoki o'qish maqsadida bo'lib turibdi. 14 801 nafari ishlash uchun, 672 na-fari ta'lim maqsadida, 293 nafari esa davolanish yoki boshqa sabablarga ko'ra chet elda.



Abror AHMEDOV,
Qashqadaryo viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig'i



Xorijda noqulay sharoitlarda ya-shayotgan, qiynalib mehnat qilayot-gan yoshlarni yurtimizga qaytarib, munosib daromadga ega ishlarga jalb qilish mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash tizimining ustuvor yo'nalish-laridan biri hisoblanadi. Bu borada-gi targ'ibot ishlari natijasida 4 391 na-far yosh Vatanga qaytgan bo'lsa, ular-ni 3 679 nafari ish bilan ta'minlan-gan.

Yoshlarning bo'sh vaqtini maz-munli o'tkazishga qaratilgan “Besh tashabbus olimpiadasi”da yigit-qiz-lar qamrovi tobora ortib bormoq-da. Bu yil 745 mingdan ziyod yosh 5tashabbus.uz platformasida ro'y-xatdan o'tdi. Yilning 9 oyi davomi-da o'tkazilgan 582 ta madaniy, sport va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda 564 mingdan ortiq yosh faol ishtirok et-di.

“Zakovat”, “Munozara”, “Talaba Fest”, “Amir Temur izdoshlari” ka-bi loyihalar yoshlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. “Ibrat farzandlari” loyi-hasida 173 mingdan ortiq yosh xori-jiy tillarni o'rganyapti. Ularning 1 679 nafari C1 darajadagi sertifikatni qo'lga kiritgan va ularga 28,8 milliard so'mlik kompensatsiya to'lab berilgan. “Qiz-lar akademiyasi”da 11,5 mingdan ortiq yosh ayollar tadbirkorlik, dizayn, marketing, huquq sohalarida bilim va ko'nikmalarni egallagan. “Mutolaa”-da 87 ming nafar kitobxon yosh bor, ularning eng iqtidorlilari rag'batlan-tirilgan.

Yuqorida keltirilgan har bir ra-qam ortida inson hayotidagi o'zga-rish, har bir tashabbusda yosh av-lodning ertangi kuniga ishonch yotibdi. Yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarning jamiyatdagi faolligini oshirmoqda. Eng muhimi, bu natija-lar har bir mahallada, oilada o'z aksini topadi.

CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASHDA

ILG'OR YAPON TEKNOLOGIYALARI JORIY ETILADI



Uchrashuvda chiqin-dilar bilan ishlash, ilg'or yapon texnolog-i-yalari asosida qay-ta ishlash va utilizatsiya qilish, at-rof-muhitni muhofaza qilish sohasida qo'shma loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

“Ishigaki Company Ltd.” vakil-lari o'z faoliyati haqida ma'lumot berib, kompaniyaning 67 yildan or-tiq tajribaga ega ekanini ta'kid-ladi. Kompaniya filtrlash, suvni tozalash, chiqindilarni quritish va shahar suv tozalash inshootlari uchun uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi hisoblanadi.

Yaponiya tomoni O'zbekiston-niing iqtisodiy o'sishi, infratuzilma, ekologiya va tog'-kon sanoatida amalga oshirilayotgan islohotlar-ga katta qiziqish bildirdi. Shu bilan birga, kompaniya vakillari mam-lakatimizda qo'shma biznes-loyi-halarni amalga oshirish va aholi-niing turmush sifatini oshirishga qaratilgan tashabbuslarda ishtirok etishga tayyor ekanini bildirdi.

Ekologiya vaziri Aziz Abduhaki-mov O'zbekistonda chiqindilar bi-lan ishlash va “yashil” texnolog-i-yalarni joriy etish bo'yicha faol ish-lar olib borilayotganini qayd etdi.

Shuningdek, vazir iqlim o'zga-rishi va antropogen bosimning or-tishi sharoitida ekologiya hamda tabiiy resurslardan oqilona foydala-nish masalalari davlatning strategik ustuvor yo'nalishi ekanini ta'kid-ladi. Shu nuqtayi nazardan, xalqa-ro tajriba, ayniqsa, yapon ekologik texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKO-LOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGIDA YAPONIYANING SANOAT FILTRLASH VA CHIQINDILARNI QURITISH USKUNALARI ISHLAB CHIQARISHGA IXTISOSLASHGAN “ISHIGAKI COMPANY LTD.” KOMPANIYASI VAKILLARI BILAN UCHRASHUV BO'LIB O'TDI.



Uchrashuv yakunida Aziz Ab-duhakimov Chiqindilar bilan ish-lash va sirkulyar iqtisodiyotni rivoj-lantirish agentligi hamda “Ishiga-ki Company Ltd.” o'rtasida Ham-korlik memorandumini imzolashni taklif etdi. Memorandum mutaxas-sislar almashinuvi, ekologik audit o'tkazish, qo'shma ilmiy-tadqiqot dasturini yaratish va yapon tex-nologiyalarini O'zbekiston sharo-itiga moslashtirishni nazarda tutadi. Tomonlar dastlabki tadqiqot-lar va ekspert baholarini amal-ga oshirishga kelishib oldi. Ushbu natijalar asosida pilot loyiha ishga tushiriladi.

Ishtirokchilar mazkur hamkor-lik O'zbekistonda sirkulyar ikti-sodiyot, “yashil” texnologiyalar va barqaror rivojlanishni ilgari su-rishda muhim qadam bo'lishiga ishonch bildirdi.

Shahnoza MAMATUROPOVA

Sharqda

QUYOSH PORLAMOQDA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Y etakchining gapida jon bor. So'nggi ikki yilda Sharq mahallasidan 1 739 nafar yosh "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirok etgan. Mahallada sport infratuzilmasi yangilangan: 1 ta mini futbol maydoni, 2 ta sport zali, 1 ta universal sport maydoni yoshlar ixtiyorida. Futbol bo'yicha mahallaning qizlar jamoasi 2023-yili DXX kubogining Toshkent shahar bosqichida 1-o'rinni egallagan.

MIGRATSIYADAN QAYTGAN FUTBOLCHI

Yoshlar yetakchisi xorijda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlar bilan ishlash bo'yicha "Sog'inch" loyihasini yo'lga qo'ydi. Loyiha doirasida 2024-yilda migratsiyada bo'lgan Avaz Erkinov bilan suhbatda u Vatanga qaytish istagini bildirgan. Yetakchi unga ma'qul ish taklif qilgach, Avaz uyiga qaytib keldi. Hozir u mahallaning futbol jamoasi sardori. Uning hayotida DXX kubogi katta ahamiyat kasb etdi. Jamoadagi faolligi tufayli Avaz "Havas" futbol ligasidan taklif oldi. Ayni paytda u ushbu liganing eng faol va tashabbuskor a'zolaridan biri.

– Futbol – jamoaviy ruh, do'stlik va mas'uliyatni his qilish maktabi, – deydi Avaz Erkinov. – DXX kubogi musobaqalari orqali men o'zimni sinab ko'rdim, yangi maqsadlarga intilishim kuchaydi.

		
"Yashil"	"Sariq"	"Qizil"
toifa:	toifa:	toifa:
776	64	4
nafar	nafar	nafar

BANDLIK – BOSH MEZON

Yoshlar va aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ilimga qiziqishni oshirish maqsadida mahalla idorasida "Mikrokredit-bank" ko'magida zamonaviy kutub-

MAHALLA BALANSI:
Aholi: 4768 nafar;
Yoshlar: 840 nafar;
Ayol-qizlar: 412 nafar.

xona tashkil qilindi. Kutubxona 10 ta o'quvchi o'rni ega qulay o'quv zali, zamonaviy mebellar va shinam muhitga ega bo'lib, 500 ga yaqin badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan boyitilgan.

Ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari bandligiga ko'maklashish, "Yoshlar bandligi dasturi"ni amalga oshirish maqsadida Sharq mahallasi yoshlariga O'zbekiston ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi birlashtirilgan. Bir necha marta vazir va yoshlar uchrashuvi o'tkazilib, yoshlarning qiziqishlari, kelgusidagi rejalari o'rganildi, zarur yordamlar taklif etildi.

Umida Yo'ldosheva tikuvchilik bilan shug'ullanish istagini bildirgan. Uning so'rovi qanoatlantirilib, tikuvchilik uchun zarur uskunalar olib berildi. Hozir Umida o'zini o'zi band qilgan holda oilasining ehtiyojlarini ta'minlab kelmoqda. Yana bir yoshga noutbuk berilgan, hozir u zamonaviy kasblarni o'rganyapti.

2025-yilda mahallada 3 nafar yosh OTMni, 2 nafari professional ta'lim muassasasini va 43 nafari maktab bitirdi. Maktab bitiruvchilariga OTMga hujjat topshirish jarayonida ko'maklashilib, qiziqish va iqtidoridan kelib chiqib tegishli tavsiyalar berildi. Natijada 26 nafar bitiruvchi ta'limning keyingi bosqichiga jalb etildi, qolganlari ishga joylashtirildi. Tadbirkorlikka qiziqishi bor 11 nafar yoshlarga imtiyozli kreditlar ajratildi, yana 22 nafar yosh kasb-hunarga o'qitildi.

OTALIQQA OLISH

Og'ir toifaga kiruvchi 5 nafar yosh bilan individual va manzilli ishlash orqali kutilgan natijaga erishildi. Misol uchun, Mirsaid Mirahmedovga hokim yordamchisi bilan hamkorlikda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun 10 million so'm imtiyozli kredit ajratildi.

16 nafar yoshga "Yoshlar daftari" jamg'armasi orqali ko'mak ko'rsatildi. Bandlikni ta'minlash yo'nalishida 5 nafar, to'lov-kontrakt summasining bir qismini to'lash uchun 9 nafar, SChR badalini qoplash uchun 2 nafar yoshlarga pul ajratildi.

Yoshlar yetakchisi tashabbusiga ko'ra xorijdagi vatandosh yoshlar bilan ishlash va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida mahalla profilaktika inspektori hamda hokim yordamchisi ko'magida xonadonma-xonadon o'rganishlar tashkil etilgan.

MAHALLA "QALQON" LARI

Mahalladagi "Qalqon" jamoasi 50 nafarga yaqin yoshlarni o'z safiga birlashtirgan. Jamoa a'zolari yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, mahalla fuqarolari o'rtasida tushuntirish ishlarni olib borish bilan shug'ullanib kelmoqda.

– "Qalqon" jamoasi bilan mahalla hududida 70 ga yaqin manzarali va mevali daraxtlar ekib, yoshlar bog'ini tashkil etdik, – deydi yoshlar yetakchisi. – Bugun jamoa tartib-intizomni saqlashda, mahalla hayotini yanada osoyisht va totuv qilishda, yoshlar o'rtasida o'zaro birdamlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda.



SayyorAI, "Yoshlar ovozi" SI muxbiri

KELAJAK FAQAT KUTILMAYDI – U YARATILADI. VA BUNDA YASHIL TAFAKKURGA EGA YOSHLAR MARKAZDA TURADI.

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

YASHIL TAFAKKUR

QIYINCHILIK VA CHEKLOVLAR

Yashil tafakkurni qadriyatga aylantirish yo'lida qator to'siqlar bor. Masalan, yoshlar orasida ekologik ongni oshirish bo'yicha tanlov va musobaqalar o'tkazilmoqda, biroq bu keng jamoatchilikka tarqalmagan. "Environmental awareness among youth on the rise" hisobotida yoshlarning talab va faolligi borligi qayd etilgan, lekin bu faqat tayyor guruhlarga ko'ra, suv resurslari bilan ehtiyoqkorona muomala qilish yoshlar orasida tushunilgan bo'lsa-da, amaliy xatti-harakatlar darajasi past.

Ekologik tarbiya va ta'limga qaratilgan dasturlar ta'lim muassasalari va hududlar o'rtasida teng emas – qishloq hududlarda imkoniyatlar cheklangan (masalan, ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha pedagogik aspeklarga bag'ishlangan tadqiqot).

Bu holatlar "yashil tafakkur qadriyatga aylanmoqda" degan fikrni rag'batlantirsa-da, unga erishish uchun vaqt va amaliy ishlar zarur ekanini ko'rsatadi.

BU FAQAT G'OYA EMAS

O'zbekistonda yoshlar ekologik faoliyatga jiddiy qaramoqda. Misol uchun, maktab va universitet yoshlarida ekologik klublar, chiqindilarni qayta ishlash, daraxt ekish aksiyalari tashkil etilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda "#YashilTaraqqiyotUchun" kabi kampaniyalar paydo bo'lmoqda – bu yoshlar onlayn vositalarni ham qo'llayotganiga dalil.

Ta'lim muassasalarida ekologik treninglar, o'quv sayohatlari orqali yoshlar ongi shakllantirilmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi hisobotida yoshlar seminar, onlayn kurs va amaliy ekskursiyalarda qatnashgani ta'kidlangan.

Bu misollar shuni anglatadiki, "yashil tafakkur" faqat g'oya sifatida qolmay, amaliy faoliyatga aylanib boshlagan.

QADRIYATNI MUSTAHKAMLASH LOZIM

O'zbekistonda yoshlar ekologik tafakkur bosqichidan qadriyat bosqichiga o'tmoqda, ular resurs tejash, chiqindilarni kamaytirish, barqaror hayot tarziga intilyapti. Ammo bu qadriyatni hayot tarziga aylantirish uchun:

- ta'limdan boshlab hayotiy ekologik tarbiya tizimi yaratilishi;
- yoshlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash (startaplar, grantlar, loyihalar);
- hududiy tengsizlikni bartaraf etish va qishloq joylarda ham imkoniyatlar yaratish kerak.

Shunda "yashil tafakkur" chin ma'noda har bir yoshning kundalik qarori bo'ladi, bu nafaqat milliy jihatdan, balki global iqlim barqarorligi nuqtayi nazaridan ham muhim.

Ulug'bek NURMURODOV



Chilonzor tumanidagi Sharq mahallasi yoshlar yetakchisi

MAKTAB BILAN HAMKORLIK

Yoshlar yetakchisi mahalla hududidagi maktab bilan doimiy hamkorlikda ish olib boradi. Uzviy hamkorlik natijasida ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, loyiha va uchrashuvlar muntazam o'tkazilmoqda. Hamkorlik samarasi o'laroq maktabda muntazam dars qoldiruvchilar yo'q.

Yoshlar yetakchisining tashabbusi bilan maktabda o'ziga xos tajribaga qo'l urildi: "Maktab kelajagi uchun ovoz bering" shiori ostida o'quvchilar maktab prezidentini sayladi. Ayni paytda u maktab muhitida sezilarli o'zgarishlar qilishga intilmoqda.

– O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti bilan hamkorlikda mahallamizdagi Al Xorazmiy massivida bepul ingliz tili kursini tashkil etdik, – deydi yoshlar yetakchisi. – Bu yerda 20 nafarga yaqin yoshlar ingliz tilini o'rganmoqda. Yoshlarning nutq madaniyati va erkin fikrlash salohiyatini rivojlantirish maqsadida mahalla hududidagi kutubxonada "Debate Club of the Mahalla" loyihasini yo'lga qo'ydik. Klubga maktabimizning Misr Arab Respublikasidan kelgan ingliz tili o'qituvchisi Mr. Ahmad Mohammad hakamlilik qiladi. Klubda 87 nafar yosh faol ishtirok etmoqda.

Ulug'bek Nurmurodov @sharqyoshlarbalansi bot telegram botini ishlab chiqdi. Botda 1174 ta xonadon haqidagi elektron ma'lumotlar jamlangan. Bu yoshlar bilan tezkor ishlash imkonini beradi. Shuningdek, yoshlar uchun e'lonlar, tadbir va musobaqalar haqida xabarnomalar avtomatik tarqatiladi.

KELAJAK REJALARI

Ulug'bek kelgusida mahallada yoshlar bilan ishlash sohasida qator muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratishni rejalashtirilmoqda. Jumladan:

- 2025–2026 o'quv yili bitiruvchilarning manzilli ro'yxatini tasdiqlash, ularning ta'lim olishiga ko'maklashish, oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlariga tayyorlanish jarayonida mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini yo'lga qo'yish;
- yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida targ'ibot-tashviqot tadbirlarini muntazam tashkil etish;
- vatanparvarlik ruhini mustahkamlash maqsadida ochiq osmon ostida vatanparvarlik g'oyalarni targ'ib etuvchi videofilmlar namoyishlarini tashkil etish;
- ekologik madaniyatni oshirish maqsadida hududda yana 2 ta yoshlar bog'ini barpo etish.

Fikr

Charos HAQIYEVA, TDYU talabasi

Erkinlik QONUNLARDAN BOSHLANADI

Har bir ishda, har joyda, har qanday davrada erkin bo'lishni xohlaymiz. Biroq erkinlik deganda nimani tushunamiz, bu degani istaganini qilishni yoki o'z huquqlarini bilgan holda qonun doirasida yashash?

Albatta, erkinlik qonunlarni bilishdan boshlanadi. Bu fikr ziddiyatli tuyulishi mumkin. Chunki ongimizda qonun faqat qoida, majburiyat va cheklov degan tushuncha o'rnatilgan.

Erkinlikning eng katta dushmani – tartibsizlik. Agar jamiyatda qoidalar bo'lmasa, faqat kuchli insonlarga erkin bo'ladi. Qonunlar esa hamma uchun yagona, adolatli muhitni yaratadi. Qonunlarni bilish sizga o'z huquq va erkinligingizdan to'g'ri va oqilona foydalanish imkonini beradi. Sizning erkinligingiz qayerda boshlanib, qayerda tugashi anglab yetasiz.

So'zlash, harakatlanish, mehnat qilish, vijdon erkinligi va boshqa bir qancha huquqlarimiz Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. Shulardan biri – axborot olish va so'zlash huquqi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida har kim erkin so'zlash, fikrlash, axborot olish va tarqatish huquqiga ega ekanini ta'kidlangan. Biroq so'z erkinligi boshqalarning huquqlarini poymol etish yoki sha'ni va qadr-qimmatiga

putur yetkazish maqsadida emas, balki har kimning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida Konstitutsiyada mustahkamlangan.

Qonun har bir inson, u boy yoki kambag'al, kuchli yoki zaif bo'lishidan qat'i nazar teng huquqqa ega bo'lishini ta'minlaydi. Qonun sizning mulkingizni o'g'irlardan, sha'ningizni tuhmatchilardan, hayotingizni tajovuzkorlardan himoya qiladi. Shu himoya tufayli siz qo'rqusiz yashash, so'zlash va fikrlash erkinligiga ega bo'lasiz. Mantiq mana shu yerda. Erkinlik burch va mas'uliyatni anglagan holda harakat qilishdir. O'z burchini qonunlarga rioya etgan holda bajaradigan shaxs boshqalarning huquq va erkinliklariga zarar yetkazmaydi.

Umuman olganda, erkinlik tushunchasi istagancha harakat qilish emas, balki qonunlarni hurmat qilgan holda boshqalarning huquqlariga zarar yetkazmaslikdir. Bugungi demokratik jamiyatda har bir inson so'zlash, fikrlash, harakat qilish erkinligiga ega, biroq bu erkinliklar qonunlar bilan chegaralangan. Qonunlar muvozanatni ta'minlab, barcha fuqarolarning teng huquq va erkinliklarini kafolatlaydi. Haqiqiy erkinlik erishish uchun esa har bir inson o'z huquq va burchlarini bilishi, huquqiy madaniyatga ega bo'lishi zarur.

QONUN HAR BIR INSON, U BOY YOKI KAMBAG'AL, KUCHLI YOKI ZAIF BO'LISHIDAN QAT'I NAZAR TENG HUQUQQA EGA BO'LISHINI TA'MINLAYDI. QONUN SIZNING MULKINGIZNI O'G'RILARDAN, SHA'NINGIZNI TUHMATCHILARDAN, HAYOTINGIZNI TAJOVUZKORLARDAN HIMOYA QILADI.



TO‘YDAN SO‘NG...



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

2019-yilda “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining qo‘shma qarori qabul qilindi. Unda oilaviy tadbirlarni qisqartirish nazarda tutilgan bo‘lsa, keyinchalik 2022-yilda mana shu normaga rioya qilmaganlik uchun ma‘muriy javobgarlik ham belgilandi.

Haqiqatan ham to‘y tadbirlarida haddan ziyod ortiqcha dabdaba, xarajat va isrofgar-chiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Achinarlisi, boylarning shunday qilish uchun sharoitlari yetarlicha, biroq o‘rtahol oilalar ham ularga teng bo‘laman deb umrini faqat to‘yga pul yig‘ish bilan o‘tkazyapti. To‘y uchun kredit olish ham avjiga chiqqan. Baxtli hayot boshlanishi kerak bo‘lgan nuqtadan qarzga to‘la tashvishli hayotga qadam qo‘yilmoqda.

2025-yil 22-aprel kuni yana bir yangi me‘yor qabul qilindi: “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlarda 200 nafargacha, bu tadbirlar munosabati bilan osh berish marosimida 250 nafargacha kishi qatnashadi. Qo‘shaloq to‘ylarda 250 nafargacha, u bilan bog‘liq osh berish marosimida esa 300 nafargacha kishi qatnashishi mumkin.

Gulsevar XIDIROVA,
TDYU talabasi



Oysa TOSHMURODOVA

– Qo‘y qanaqa hayvon?
– Yungi jingalak, ko‘zi qo‘yo‘ko‘...
– Yana-chi?
– Oldidagi qo‘y qayoqqa yursa, uyam o‘sha yoqqa ketaveradi.
– Hm, nega yo‘lini o‘zi tanlamaydi?
– Im, bilmasam. O‘zi shunaqa bo‘lsa kerak-da.
– Agar oldindagi qo‘y qassobxona tomonga ketayotgan bo‘lsa-chi?

– A, buni orqadagi qo‘y bilmaydi-ku, ketavarsa kerak-da. To‘xtang, o‘zi nimaga bu haqda gaplashyapmiz, qo‘ying-e, o‘zimizni gaplardan gaplashaylik. Yoki nima, qo‘y biznesi qilmoqchimisiz?

– Yo‘q.
– “Roleks”. Qalay, zo‘rmi? To‘rt mingga oldim, Turkiyaniki.
– Nimaga? Vaqtini oddiy soatga qaraganda zo‘roq ko‘rsatarkanmi?

– Yo‘q, shunchaki. Endi bu yog‘i obro‘-da... Ha, bizning “iPhone”cha qalay?
– Yaqinda “16” olmaganmiding?
– Ha, endi zamon bilan hamnafas yashaylik. Hozir hamma “17” olyapti-da.

– Shuncha pul qayoqdan?
– Kredit. O‘zimni picha yig‘ganim bor edi. Qolganiga kredit ovordik. Oylkidan oz-ozdan to‘lab turibmiz. Eh, oyilgam kam o‘zi, yarmi kreditga ketsa, yarmi o‘zimga zo‘rg‘a yetadi. Shunaqa qiyin vaziyatimda Nigoraxon ham “Merry me”ni Dubayda qilaylik deyapti. Orzu-havasli qiz ekan, mayli, amallaymiz deb va‘da berib qo‘ydim. Endi pul topish kerak...

– Ehe, qayoqqa qarab oyoq uzatypsilar o‘zi?
– Qayoqqaligini bilmadim-u, lekin ko‘rpaga qarab uzatsak, zamondan orqada qolib ketamiz-ku, aka.
– Kel, yaxshisi, yuqoridagi mavzu haqida gaplashamiz.
– E, buncha qo‘y-qo‘y deysiz. Men qayerdan bilaman, qo‘ymanni sizga?
– Hm, qo‘y-ku hayvon. Biz esa aql-hush berilgan odamlarmiz.
– A?

4024 ta mahalla yoshlar jinoyatchiligidan xoli

Mamlakatimizda yoshlar orasida jinoyatchilik darajasi sezilarli kamayib, profilaktik nazoratdagilarni ijtimoiy hayotga qaytarish bo‘yicha tizimli natijalar kuzatilmoqda.

Joriy yilda og‘ir toifadagi 52 mingga yaqin yosh huquq-tartibot va mudofaa organlariga birlashtirilib, individual ishlash natijasida 32 ming nafardan ortig‘i sog‘lom hayot tarziga qaytarildi.

Mudofaa, ichki ishlar, milliy gvardiya, favqulodda vaziyatlar, prokuratura va adliya tizimlari yoshlarni otaliqqa olib, ularning ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam berdi. Mas‘ullar tashabbusi bilan 6 mingdan ortiq yosh probatsiya va profilaktika hisobidan chiqarildi. Minglab o‘quvchilar ta‘limga qaytarildi va yuzlab yosh oilalar ajrimining oldi olindi.

Shuningdek, 651 nafar yosh giyohvandlik va yot g‘oyalardan qaytarilib, o‘z yo‘lini topishiga yordam berildi. “Ijtimoiy profilaktika” tizimi yo‘lga qo‘yilib, 150 mingga yaqin yosh yetakchilarga birlashtirildi va ularning aksariyati bilan sog‘lomlashtirish choralarini ko‘rildi. Natijada 2025-yilning 9 oyida yoshlar jinoyatchiligi 16,6 foizga kamayib, 4 024 ta mahalla yoshlar jinoyatchiligidan xoli hududga aylandi.

INFOLIB

XIV MILLIY AXBOROT-KUTUBXONA HAFTALIGI BO‘LIB O‘TMOQDA



Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida “INFOLIB O‘ZBEKISTON – 2025” XIV milliy axborot-kutubxona haftaligi davom etyapti. Bu yilgi haftalik mamlakat bo‘ylab joylashgan axborot-kutubxona markazlarini birlashtirib, sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun tajriba almashish, yangi bilimlar olish va kasbiy malakani oshirish maydoniga aylandi.

Haftalik Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan 72-maqсад doirasida tashkil etilgan bo‘lib, aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, kitobxonlikni ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” g‘oyasini amaliyotda ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Haftalik doirasida “Betgerxonlik – 2025” ilmiy anjumani, “Sun‘iy intellekt orqali yuksak marralar sari” mavzusida seminar-trening, “Kutubxona marketingida vizual kommunikatsiya va dizaynning o‘rni” mashg‘uloti, “IFLA Grantlari: yosh kutubxonachilar uchun xalqaro tajriba almashish imkonini” kabi mashg‘ulotlar o‘tkazilyapti.

Shuningdek, taniqli davlat arbobi Mustafo Cho‘qayning Istanbulda o‘zbek tilida chop etilgan “Sovet Ittifoqining Turk dunyosi siyosati” nomli kitobi taqdimoti, “Intellektual qudratga ega yoshlarimiz Yangi O‘zbekistonimiz taraqqiyot ko‘zgusi” mavzusidagi davra suhbbati hamda “Zakavatli yoshlar yurt tayananchi” shiori ostidagi intellektual o‘yin ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Haftalik davomida kutubxona sohasiga oid ilmiy-ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari, davra suhbatlari va kitob ko‘rgazmalari ham o‘tkaziladi. Tadbirlar kutubxonachilarning bilimini boyitish, ularning ijodiy g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash va yosh avlodda kitob o‘qishga qiziqishni yanada kuchaytirishga qaratilgan.

“INFOLIB O‘ZBEKISTON – 2025” haftaligi davom etadi. Yakunda soha rivojiga hissa qo‘shgan ijodkorlar, mutaxassislar va tashkilotlar Milliy kutubxona tomonidan taqdirlanadi.

O‘ZBEK TILI VA TA‘LIMI MUAMMOLARI

ATROFLICHA MUHOKAMA ETILDI



MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETIDA “O‘ZBEK TILI VA TA‘LIMI MUAMMOLARI” MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA O‘TKAZILDI.

Mazkur anjuman ushbu oliy ta‘lim dargohi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, bir qator xorijiy universitetlar, “Science and Innovation” ilmiy jurnali hamkorligida tashkil etdi.

Konferensiyada O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov va boshqalar mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish, uni o‘qitish sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xalqaro miqyosda targ‘ib va tashviq etish masalasiga katta e‘tibor qaratilayotganini ta‘kidladi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda mamlakatimizda 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni sifatida keng nishonlanmoqda. Ona tilimizni ravnaq toptirish borasida ko‘plab huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy yilda “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorning imzolinishi soha ravnaqida yangi istiqbollarni ochmoqda.

Bu hujjat o‘zbek tilini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha

chora-tadbirlarni belgilab bergani bilan ahamiyatlidir. Qaror qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Konferensiyada o‘zbek tilining nazariy va amaliy masalalarini tahlil etish, xorijda o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishning ahamiyatini oshirish, o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini yuksaltirish, amaliy va kompyuter lingvistikasida tilimizning qo‘llanilishi bilan bog‘liq masalalar atroflicha muhokama etildi.

– O‘zbek tiliga davlat tilining maqomining berilishi bu tilning xalqaro miqyosda ham maqomini yuksaltirdi, – dedi Anqara universiteti professori Aynur O‘z O‘zjon. – 1991-yilda universitetimizda zamonaviy o‘zbek tili kafedrasini ochildi. Unga o‘zbek tilini o‘qitish uchun zahmatkash olim Iristoy Qo‘chqortoyev ishga taklif etildi. Hozir mazkur bo‘lim bakalavriat, magistratura, doktorantura sohalarida o‘zbek tilini o‘qitishda yetakchi o‘rin egallamoqda. U yerda o‘zbek tili grammatikasi, semantikasi, xalq og‘zaki ijodi kabi yo‘nalishlarda puxta bilim beriladi. Ko‘plab yosh tadqiqotchilar o‘zbek tiliga oid masalalar bo‘yicha ilmiy dissertatsiyalar himoya qildilar. O‘zbek adib va shoirlarining “Saylanma” asarlari taqdimoti, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning tavallud sanasiga bag‘ishlangan tadbirlar muntazam o‘tkaziladi. Bu kabi anjumanlar o‘zbek tilini xorijda o‘qitish bo‘yicha yangi istiqbol-larni muhokama etish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Anjumanda o‘zbek tili ta‘limiga katta hissa qo‘shib kelayotgan olima Muhabbat Qurbonova tavalludiga 60 yil to‘lishi munosabati bilan olim faoliyatida xususida atroflicha so‘z yuritildi.

O‘zbek tilining nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilish va o‘rganish, tilshunoslik sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish istiqbollari, o‘zbek tilining boshqa tillar bilan aloqalarini o‘rganish va rivojlantirish, o‘zbek tili taraqqiyoti masalalarini tadqiq etish, o‘zbek tili ta‘limi va tadqiqotida O‘zbekiston milliy universitetining o‘rni kabi mavzular batafsil muhokama etildi.

Nazokat USMONOVA,
O‘ZA muxbiri



HAYOTGA ISHONCH URUG‘I

Toshkent shahridagi “G‘afur G‘ulom” bog‘ida hayotga ishonch bilan boqayotgan bolajonlarning yuzida tabassum balqidi. Ular oddiy bolalar emas, onkologiya va gematologiya kasalliklari bilan kurashayotgan, ammo ruhi sinmagan, ko‘zi-da umid yaltirab turgan mard bolalar. Ular bog‘da taniqli “instablogger”lar bilan birga chinor ko‘chatlarini yerga qadashdi.

Har bir bolakay qo‘lida bir tup ko‘chat, yura-gida esa kelajakka bo‘lgan ishonch. Kimdir tup-roqni umshatdi, kimdir suv quydi, yana kimdir daraxtni mehr bilan siladi. Shu manzarada tabiat va inson bir butunga aylandi.

Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan 2025-yil kuzida mamlakat bo‘ylab 1000 ta “Yoshlar bog‘i” barpo etilishi va 104 mingdan ortiq daraxt ko‘chatlari ekilishi rejalashtirilgan. Bu atrof-muhitni ko‘kalamzorlashtirish, har bir yosh yurakda tabiatga mehr uyg‘otish, hayotga e‘tibor bilan qarashni o‘rgatish demakdir.

Bugun ekilgan daraxt – kelajak avlodga qoldirilgan hayot, umid va bardamlik ramzi. Ular o‘sib, soyasida bolalar shodon kulganida bu yerda ekilgan ishonch urug‘lari bo‘y ko‘rsatgan bo‘ladi.



FACEBOOKmi yoki FEYSBUK?



“Feysbukda bir qiziq post ko‘rib qoldim”, “Yutubga yangi klip chiqibdi”. Bu jumlar sizga tanish, albatta. Facebook va YouTube kabi global brend nomlarini o‘zbekcha talaffuzga moslab aytamiz, ba‘zan shunday yozamiz ham. Xo‘sh, qay biri to‘g‘ri? Asl imloni saqlab qolish kerakmi yoki talaffuzga ergashish zarurmi?

Bu savolga javob berish uchun ikkita jiddiy tamoyilni ko‘rib chiqishimiz kerak.

“Feysbuk”, “Yutub” shaklida yozish uchun dalil: har qanday jonli til o‘zlashma so‘zni vaqt o‘tishi bilan o‘zining fonetik qoliplariga “bo‘ysundiradi”. Biz computer demaymiz, kompyuter deymiz. Shu mantiqdan kelib chiqsak, Facebookning feysbukka aylanishi – tabiiy jarayon.

“Facebook”, “YouTube” shaklida yozish uchun dalil: Facebook texnik ahamiyatga ega brend nomi. Brauzerga feysbuk.com deb yozsangiz, hech qayerga kirolmaysiz. Windows, Google, Apple kabi boshqa nomlarni asosan asliyatida yozamiz. Imloda yagona yondashuvni saqlagan afzal.

Yechim. Ikkala yondashuvda ham mantiq va asos borligi sababli moslashuvchan yechim kerak.

1. Rasmiy, texnik va brendga oid kontekstlarda asl imloni saqlaymiz.

Agar aynan kompaniya, platformaning rasmiy nomi yoki biror texnik manzil haqida yozayotgan bo‘lsangiz, asl imloni saqlab qolish shart: *Facebook kompaniyasi yangi funksiya joriy etdi; Bu videoni YouTube platformasidan topasiz.*

2. Norasmiy, so‘zlashuv uslubida yoki brend nomi turdosh otga aylanganda fonetik imloni qo‘llash mumkin.

Agar bu so‘zlar brendlik maqomini yo‘qotib, ijtimoiy tarmoq yoki video platforma ma‘nosida qo‘llansa, ayniqsa jonli nutqda yoki norasmiy yozishmalarda ishlatilsa, ularni fonetik shaklda yozish tabiiyroq: *Kecha feysbukda bir qiziq post ko‘rib qoldi; Qo‘shiqning klipini yutubga joylabdi.*

Tilimizda talaffuz imlosi hali to‘liq qat‘iylashmagan. Shu sababli OAVda va jiddiy matnlarda asl imloni saqlash uslubiy jihatdan to‘g‘riroq. Fonetik variantning to‘liq me‘yorga aylanishi uchun biroz vaqt kerak.

OrifTOLIB

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Shahobiddin LUQMON

Mas‘ul muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-108, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV